



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARDA TABBIY FAN DARSLARIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Mamatqulova Gulshana Klediyor qizi

Nukus innovatsion universiteti

Boshlang'ich ta'lim 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik xavfsizlik va talabalar uchun ekologik ta'lim mazmuni haqida ma'lumot berilgan, shuning bilan birga ekologik ta'limni boshlang'ich maktab o'quv dasturlariga integratsiyalashning ahamiyati va afzalliklarini o'rganadi. U mavjud adabiyotlarni o'rganadi, samarali o'qitish usullarini tahlil qiladi, bunday ta'lim natijalari bo'yicha natijalarni taqdim etadi va kelajakdagi amaliyotga ta'sirini muhokama qiladi. Maqola boshlang'ich maktablarda ekologik ta'limni kuchaytirish bo'yicha takliflar bilan yakunlanadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishda tabiatni asrash kompetentsiyasini shakllantirish, tabiat bilan muloqot qilish, tabiat qonunlari va hodisalariga oid kreativ fikrlashini rivojlantirish, ekologik tarixiy qadriyatlarni singdirish va ekologik mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ekologik o'simlik, olam, ekologik idrok, ekologik tasavvur, ekologik ong, ekologik bilim, ma'lumot, ko'nikma, odatlar, ekologik madaniyat.

Аннотация: В данной статье представлена информация об экологической безопасности и содержании экологического образования для учащихся, а также рассматриваются важность и преимущества интеграции экологического образования в учебные программы начальной школы. Автор изучает существующую литературу, анализирует эффективные методы обучения, представляет результаты таких методов обучения и обсуждает их значение для будущей практики. В заключение статьи даются предложения по укреплению экологического образования в начальной школе. В данной статье рассматриваются формирование природоохранной компетентности, общение с природой, развитие творческого мышления о природных законах и явлениях, привитие эколого-исторических ценностей и развитие навыков экологического труда в рамках экологического образования учащихся начальной школы.

Ключевые слова: экологическое растение, мир, экологическое восприятие, экологическое воображение, экологическая наука, экологические знания, знания, навыки, привычки, экологическая культура.

Annotation: This article provides information on environmental safety and environmental education content for students, as well as explores the importance and benefits of integrating environmental education into elementary school curricula. U explores the existing literature, analyzes effective teaching methods, presents findings on such teaching outcomes, and discusses implications for future practice. The article



concludes with suggestions for strengthening environmental education in primary schools. This article discusses the formation of nature conservation competence, communication with nature, development of creative thinking about natural laws and phenomena, inculcation of ecological historical values and development of ecological labor skills in providing ecological education to elementary school students.

Key words: ecological plant, world, ecological perception, ecological imagination, ecological science, ecological knowledge, knowledge, skills, habits, ecological culture.

Kirish. Hozirgi kunda global ekologik muammolarning kuchayishi yosh avlodga ekologik ong va madaniyatni shakllantirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Boshlang'ich sinf davri bolaning shaxsiyati shakllanadigan, atrof-muhitga nisbatan munosabati paydo bo'ladigan muhim bir palla hisoblanadi. Shu sababli, aynan shu yoshdan boshlab o'quvchilarda tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali ekologik tarbiyaga poydevor qo'yish maqsadga muvofiqdir. Tabiiy fan darslari bu borada keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Ekologik xavfsizlik muammosi nafaqat milliy va mintaqaviy, balki butun insoniyatning umumbashariy muammosidir. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, rivojlanishning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir. Atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy «Bolalarga jonim fido» asarida «Men bolalar «Alifbo»sini ochib, birinchi so'zni hijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob – tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim» - deb ta'kidlaganidek, bu borada barcha ishlarni bolaning kichikligidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 50- moddasida: «Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar» va 55- moddasida esa: «Yer va er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarning umumiy boyliklardir.

Boshlang'ich ta'lim tizimida ekologik tarbiyaning mazmun-mohiyati, pedagogik asoslari va amaliy yo'nalishlari bo'yicha ko'plab ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi murakkab, ko'p jihatli va bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiluvchi jarayondir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillarda ta'lim va ekologiya sohalarini rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlarida yosh avlodga ekologik tarbiya berish, ularning ekologik dunyoqarashi va mas'uliyatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Yashil makon» umumxalq loyihasi, Ekologik partiyaning tashabbuslari hamda «Ekologik madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» shular jumlasidandir. Ular o'z navbatida ta'lim tizimida ekologik yo'nalishdagi faoliyatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Ekologik tarbiyaning ahamiyati va maqsadi.

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi — o'quvchilarda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish, ularni tabiatni asrab-avaylashga, tabiiy resurslardan oqilona



foydalanishga o'rgatishdan iborat. Bu jarayon bolalarda quyidagi xislatlarni rivojlantirishga yordam beradi:

Tabiatga nisbatan mehr-muhabbat va hurmat: O'simliklar va hayvonot olamiga g'amxo'rlik qilish, ularni himoya qilish istagini uyg'otish.

Ekologik mas'uliyat: O'z xatti-harakatlarining atrof-muhit uchun oqibatlarini anglash va tabiatga zarar yetkazmaslikka intilish.

Tejamkorlik: Suv, elektr energiyasi va boshqa tabiiy resurslarni tejash ko'nikmalarini shakllantirish.

Ijodiy va tanqidiy fikrlash: Ekologik muammolarning sabablarini tushunish va ularni hal etish yo'llarini izlashga undash.

Tabiiy fan darslarida ekologik tarbiyani shakllantirish usullari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani samarali amalga oshirish uchun o'qituvchidan zamonaviy va interaktiv usullardan foydalanish talab etiladi.

Quyida tabiiy fan darslarida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi usullar keltirilgan:
Interfaol ma'ruzalar va suhbatlar: Dars jarayonida o'quvchilar bilan tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonlar hayoti, ekologik muammolar haqida qiziqarli suhbatlar o'tkazish. Bu suhbatlar bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, sodda va tushunarli tilda olib borilishi kerak.

Amaliy mashg'ulotlar va tajribalar: O'quvchilarni tabiat bilan bevosita muloqotga kirishishiga imkon beradigan amaliy ishlar tashkil etish. Masalan, maktab hovlisiga gullar va daraxt ko'chatlarini o'tqazish, urug'dan o'simlik o'stirishni kuzatish, suvning xususiyatlarini o'rganish bo'yicha oddiy tajribalar o'tkazish.

Ekskursiyalar: Tabiat qo'yniga, botanika bog'lariga, hayvonot bog'lariga yoki muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish o'quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirishga va undagi go'zallikni his qilishlariga yordam beradi.

Loyiha asosida o'qitish: O'quvchilarga "Chiqindilarni saralash", "Suvni tejashning oddiy usullari" yoki "Maktabimizdagi qushlarga yordam" kabi kichik ekologik loyihalarni amalga oshirishni topshirish. Bu ularda mas'uliyat hissini va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Didaktik o'yinlar va topishmoqlar: Ekologik mavzudagi o'yinlar, topishmoqlar, krossvordlar va rebuslar darsni yanada qiziqarli va esda qolarli qilishga xizmat qiladi.

Multimedia vositalaridan foydalanish: Tabiat haqidagi hujjatli filmlar, videoroliklar va taqdimotlar namoyish etish orqali o'quvchilarning ekologik bilimlarini boyitish mumkin.

Darsdan tashqari faoliyatning o'rni.

Ekologik tarbiya faqat dars jarayoni bilan cheklanib qolmasligi kerak. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar ham bu borada muhim ahamiyatga ega. "Yosh tabiatshunos", "Ekolog" kabi to'garaklarni tashkil etish, "Yer kuni", "Suv kuni", "Qushlar kuni" kabi ekologik sanalarga bag'ishlangan tadbirlar, tanlovlar va ko'rgazmalar o'tkazish o'quvchilarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga hissa qo'shadi.

Sinfdan tashqari o'qish jarayonida o'qituvchining asosiy vazifasi- o'quvchilarning ijtimoiy-ommabop, tabiatshunoslik adabiyotini o'qishga ehtiyoj hosil qilishdan iborat bo'lishi kerak. Ekologik tarbiyani singdirishda ommaviy tarzda sinfdan tashqari ishlar, ekskursiyalar, konkurslar, diapozitiv va kinofilmlarni ko'rsatish bilan tematik kechalar, har xil tadbirlar, daraxtlar o'tqazish va shu kabilarni pedagoglar tomonidan tashkil qilinishi va amalga oshirilishi ham katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, bu tadbirlarga qo'shimcha tarzda maktab, kollej yoki litseylarda, oliy ta'lim muassasalarida ekologiya oyligini tashkil qilish va barcha o'quvchi-talabalarni bu oylikda faol ishtirok etishga jalb etish ham kutilgan natijalarni berishi mumkin.

Inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda. Bugun insoniyat uchun bundan zarur yoki ekologiyani, ekologik ong va tushunchani kundalik xayot tarziga singdirishdan ko'ra boshqa ish yo'qdir. Ekologik ongni ekologik ta'lim va tarbiya, ma'lumotlar orqali insonlardagi ekologik ta'lim orqali qayta qurish, uning xayot tarzini va ma'naviyatini o'zgartirish zarur.

Hozircha insonlar ongida ekologik qonunlarga bo'ysundirmaslik, tabiatga shunchaki nazar bilan qarash tasavvurlari singib ketgan. Ekologik ta'lim - maqsadli yo'naltirilgan reja asosida tizimli ekologik bilim, madaniyat, malaka va o'quvni rivojlanish jarayonida o'rganib borish. Ekologik tarbiya-tabiatni muhofaza qilish borasida bilimni kuchaytirish tabiatni himoya qilish va ekologik o'quvlar dastlab maktabda, oliy o'quv yurtlarida oladilar.

Insonlarning yoshlari ulg'aygan sari atrof-muhit haqidagi tasavvurlari kengayadi, tabiatga boshqacha ko'z bilan nazar soladilar va sekin-asta tabiatni sevib, uni himoya qilishni o'z burchi deb biladilar.

Ekologik tarbiyaning hozirgi kunda asosiy burchi quyidagilar:

barcha hayotiy jarayonlar o'ta muhim, qimmat baho va betakror, inson barcha tirik tabiat uchun javobgar;	insonlar o'z dunyoqarashlari va xulq atvorlarini o'zgartirishi ko'p iste'mol qilish natijasida ham, etishmovchilik natijasida tabiatga zarar etkazadilar, chunki u yoki bu holda ham ekologik javobgarlik susayadi.
tabiat abadiy va tugamas, shuning uchun ham u insondan kuchli, tabiat bilan o'zaro alohida bo'lib doimo unga moslashishi va lozim bo'lsa unga yordam berishi kerak, tabiatga qarshi bo'lishi insonning o'ziga yomonlik keltiradi;	inson atrof muhitga o'lchab bo'lmaydigan darajada zarar etkazmoqda;
tabiat insoniyatning o'ziga berayotgan zarariga qarshi katta kuch bilan zarba berishi mumkin;	

1-jadval.

Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ta'lim va tarbiyani kuchaytirish ilmiy ishlar olib boorish e'tiborga loyiq. Zero ki sog'lom hayot yaratish faqat mutaxasislarning emas, barcha insonning ishi bo'lishi kerak. Ekologik ta'lim va tarbiya bir tomonlama emas, balki umumiy



ta'limda ham o'z aksini topishi kerak. Shakllanayotgan inson ekologik bilimni avval o'z uyida, keyin maktab va universitetda olishi kerak. Yerdagi abadiy hayot borishi uchun insoniyat o'zi yashaydigan yerni doimo asrashi, qayta yashartiruvchi va ekologik madaniyatni rivojlantirishi zarur.

Bir so'z bilan aytganda, ekologik madaniyat va ongni yoshlar ongida shakllantirish

barchamizning ustuvor maqsadimiz bo'lib qolmog'i lozim. Insonni ona tug'ib tarbiyalasa, tabiat uni o'stiradi. Shu sababli ham uni "Ona tabiat" deb ataymiz. Bu maqsadni amalga oshirishda, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, pedagoglarning roli va ahamiyati ancha salmoqlidir. Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar bola ongiga yetib bora olsa, uning qalbida tabiatimiz halokatiga nisbatan achinish, mehr-shafqat, uni asrash hissi uyg'onsa, demak pedagoglar o'z oldilariga qo'ygan maqsadga erishgan deb hisoblash bo'ladi.

Rasmiy kitoblar yoki plakatlar: Ekologiya, tabiatni muhofaza qilish, tabiatdagi turli xil muammolarni ko'rsatadigan rasmlar yoki plakatlar. Bu o'quvchilarning tushunishini yengillashtiradi.

Ta'limiy video va animatsiyalar: Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiya haqida qisqa, oddiy va qiziqarli videolar ko'rsatish.

Tabiatni sevish haqidagi hikoyalar: Bolalar uchun yozilgan ekologik mavzularda hikoyalar. Masalan, tabiatni sevish, daraxtlarni kesmaslik, suvni tejash kabi tushunchalarni o'rgatadigan asarlar.

Tabiatdagi suratlar va illyustratsiyalar: Atrof-muhitni ko'rish, o'rmonlar, daryolar, hayvonot va o'simliklar haqida ma'lumot beradigan suratlardan foydalanish.

Metodlar: interaktiv darslar: O'quvchilarga atrof-muhit haqida savollar berib, ularning fikrlarini tinglash va ularga ekologiya haqidagi ma'lumotlarni o'rgatish. Misol uchun, "Nima uchun daraxtlarni kesmaslik kerak?" yoki "Qanday qilib suvni tejash mumkin?" degan savollarni muhokama qilish.

Gruppalarda ishlash: O'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, ularga ekologik muammolarni yechish vazifasini berish. Masalan, "Qanday qilib chiqindilarni kamaytirish mumkin?" yoki "Atrof-muhitni ifloslantiradigan omillarni aniqlash" kabi topshiriqlar.

Tabiatga sayohatlar: O'quvchilarni tabiatga olib borib, ular bilan birgalikda ekosistemalarning ahamiyatini va ekologik muammolarni ko'rish. Bu sayohatlar o'quvchilarga amaliy tajriba beradi.

Ko'rgazmalar va chiqindilarni qayta ishlash mashg'ulotlari: O'quvchilarga chiqindilarni qanday qilib qayta ishlashni ko'rsatish va buni amalga oshirish uchun amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. Misol uchun, plastik, qog'oz, shisha va organik chiqindilarni ajratish.

O'yinlar va testlar: Ekologik mavzularda o'yinlar, viktorinalar yoki kichik testlar o'tkazish orqali bolalar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi bilimlarini mustahkamlash.





Yaratish va rasm chizish: O'quvchilarga tabiatni himoya qilish haqida rasm chizishni taklif qilish. Bu ularning tasavvurini rivojlantiradi va ekologik ongni shakllantiradi.

Misollar: Daraxt ekish: Bolalar bilan birgalikda daraxt ekish, ularning ekologiyaga qanday ta'sir qilishi haqida gaplashish.

Chiqindilarni to'plash: O'quvchilarga chiqindilarni to'plash va ularni qayta ishlash haqida ma'lumot berish.

Suvni tejash: Uyda yoki maktabda suvni qanday tejashni o'rgatish, misollar keltirish.

Dars rejalari: 1-dars: Atrof-muhitni anglash: Bu darsda o'quvchilar ekologiya, atrof-muhit va uning muhofazasi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishadi. Darsda video yoki rasml materiallardan foydalanish mumkin.

2-dars: Ekologik muammolar va ularning echimi: Bu darsda atrof-muhitga zarar yetkazadigan omillar, masalan, ifloslantirish, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa muammolar haqida gaplashiladi.

3-dars: Ekologik ongni shakllantirish: O'quvchilarga ekologik ongni shakllantirish uchun amaliy mashg'ulotlar, masalan, chiqindilarni ajratish, suvni tejash va tabiatni sevisish haqida o'rgatish. Bu metodlar va materiallar boshlang'ich sinf o'quvchilariga atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik ongni rivojlantirishda yordam beradi.

Atrof-muhitni himoya qilish bugungi kunda har bir insonning mas'uliyati va vazifasi hisoblanadi. Odamlar tomonidan ko'rsatilayotgan faoliyatlar natijasida tabiatda yuz berayotgan o'zgarishlar, ekologik muammolar, resurslarning kamayishi – bularning barchasi ekologik ongni shakllantirishni zarur qiladi.

Ekologik ong nafaqat katta yoshdagilar, balki yosh avlodda ham shakllanishi kerak. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu masala juda muhimdir, chunki ular kelajakdagi jamiyatni tashkil qiladigan yoshlar bo'lib, ular tabiatni qanday asrashni, qanday xulq-atvorni o'rganishni boshlaydilar.

Ekologik Ong Nima?

Ekologik ong –bu insonlarning atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatli va mehribon munosabatini ifodalaydi. Ekologik ong o'z ichiga tabiatni hurmat qilish, uning resurslaridan oqilona foydalanish, tabiatni ifloslantirishni oldini olish va ekologik muammolarga e'tibor qaratishni oladi. Ekologik ongning rivojlanishi, avvalo, insoniyatning tabiat bilan uyg'un yashashga intilishiga olib keladi. Bolalar uchun ekologik ongni shakllantirish, ularning tabiatga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirish, ularni ekologik muammolar haqida ongli ravishda o'ylashga undashdir. Ekologik ta'lim, ayniqsa, boshlang'ich sinfdan o'ta samarali bo'lishi mumkin, chunki bu yoshdagi bolalar tabiatni o'rganish, unga ta'sir qilish, unga nisbatan mas'uliyatni his qilishni osonroq o'zlashtiradilar.

Ekologik ongni shakllantirishning ahamiyati boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining atrofidagi dunyoni o'rganishda juda faoldirlar. Bu yoshdagi bolalar atrof-





muhitni qay tarzda himoya qilishni tushunishlari, tabiatda bo'layotgan jarayonlar va ularning hayotiga qanday ta'sir ko'rsatishini bilishlari zarur. Bu yoshdagi bolalarga ekologik ongni shakllantirish, ularda qayta tiklanadigan energiya resurslari, chiqindilarni to'g'ri ajratish, suvni tejash kabi muhim tushunchalarni o'rgatadi.

Ekologik ongni shakllantirishning asosiy ahamiyatlari:

1.Tabiatni sevishtirish va uni hurmat qilish–Tabiatni sevishtirish va unga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish, tabiatni muhofaza qilishning asosiy tamoyilidir.

2.Kelajakdagi ekologik vazifalar–Ekologik ongga ega bo'lgan yosh avlodlar, katta yoshga etganda tabiatni asrash va ekologik muammolarni hal etishda faol ishtirok etadilar.

3.Resurslarni tejash–Ekologik ongni shakllantirish orqali bolalar resurslardan oqilona foydalanishni o'rganadilar va ular tez orada suv, energiya va boshqa tabiiy resurslarni tejashga harakat qilishadi.

2-jadval.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ongni shakllantirish boshlang'ich sinfda ekologik ongni shakllantirish uchun turli xil metodlar va usullar mavjud. Bu usullar o'quvchilarning ekologik ta'lim olishini ta'minlab, ularni tabiatni asrashning muhimligini tushunishga yordam beradi.

Ba'zi muhim usullar quyidagilar:

1.Tabiatni o'rganish va faoliyatlar orqali amaliy bilimlarni berish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tabiat bilan bevosita muloqot qilish, masalan, o'simliklar ekish, tabiatdagi hayvonlarni o'rganish va boshqalar, ularda ekologik ongni shakllantirishning samarali usulidir. Bu jarayon orqali bolalar tabiatni yaxshiroq tushunib, uni asrash zarurligini his qiladi.

2.Ekologik o'yinlar va mashg'ulotlar o'tkazish. Ekologik o'yinlar va mashg'ulotlar bolalarning ekologik bilimlarini oshiradi. Masalan, chiqindilarni ajratish o'yini, suvni tejashga oid o'yinlar, o'simliklar va hayvonlarni asrash mavzusidagi tadbirlar bolalar uchun qiziqarli va ta'sirchan bo'ladi.

3.Tabiatni muhofaza qilishda mas'uliyatni o'rgatish o'qituvchilar o'quvchilarga tabiatni asrash, atrof-muhitni ifloslantirmaslik va resurslardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish haqida bilim berishlari kerak. Bu maqsadga erishish



uchun ekologik mavzularda darslar o'tkazish, masalan, tabiatdagi o'zgarishlar, iqlim o'zgarishi va resurslarni tejash haqida o'rgatish muhimdir.

4.Suv va energiyani tejash haqida tushuncha berish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun suv va energiya resurslarini tejashhaqida darslar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish kerak. Bu bolalarga energiyani tejash, suvni oqilona foydalanish kabi ekologik ahamiyatga ega masalalarni tushuntirishga yordam beradi.

Ekologik ongni shakllantirishda ota-onalar va o'qituvchilar ro'li ekologik ongni shakllantirishda o'qituvchilar va ota-onalar o'z mas'uliyatlarini yaxshi anglab, bolalar bilan birgalikda faoliyat olib borishlari kerak. O'qituvchilar darsda ekologik mavzularni o'rgatish bilan birga, bolalarni tabiatga sayohatlarga olib borish, o'qitish jarayonida o'yinlar va ko'rgazmali materiallardan foydalanishlari muhimdir. Ota-onalar esa uyda bolalari bilan tabiatni sevish, uning go'zalligini o'rganish va atrof-muhitni asrash haqida suhbatlar o'tkazishlari kerak.

Ota-onalar va o'qituvchilar hamkorligi

Farzandlarda tabiatga mehr uyg'otishda oilaning o'rni beqiyosdir. O'qituvchilar ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashi, ularga farzandlarida ekologik tarbiyani shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berib borishi lozim. Oilaviy sayohatlar, tabiatda birgalikda dam olish, uyda o'simliklar parvarishlash kabi tadbirlar bolaning tabiat bilan uyg'unlikda o'sishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fan darslari orqali ekologik tarbiyani shakllantirish uzluksiz va tizimli yondashuvni talab etadigan jarayondir. O'qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishi, dars va darsdan tashqari faoliyatni uyg'unlashtirishi hamda ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi natijasida yosh avlodda ona tabiatga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish mumkin. Bu esa kelajakda ekologik muammolarning oldini olish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim kafolatidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mamashokirov S. «Ekologik barkarorlik omillari» Tafakkur jurnali, 2005 yil, 1- son.
2. Falsafa tarixi. T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, - 139 b.
3. Тошева Д. И., Жамолова Г. К. экологическое воспитание младших школьников //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 19. – С. 46-51.
4. Тошева Д. И., Очилова М. О. Методология Ходжа Бахоуддина Накшбанда и ее социальное-педагогическая сущность //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-4 (91). – С. 17-18.
5. Тошева Д. И., Тошева Д. И. Педагогические условия экологического воспитания на уроках экологии в высшем образовании //Academy. – 2020. – №. 6 (57). – С. 88-89.



6. Тошева Д. И. Обучение учащихся начальных классов рациональному использованию

природных ресурсов //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-4 (91). – С. 19-20.

7. Tosheva D. I. Plants and their role in human health. – 2021.

8. Tosheva D. I. Ekologik tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodining o‘rni va pedagogik ahamiyati

//Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5.

9. Tosheva D. I., Zokirov S. S. O. G. L. OILA HUQUQI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2.

– №. 8. – С. 490-493